

INNOVATIONS IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning ijtimoiy siyosati

Xujakulova Nigora Rustamovna, Sharofova Saida Alimurod qizi

Государственная социальная политика в развитии семейного предпринимательства в сельском хозяйстве

Хужакулова Нигора Рустамовна, Шарофова Саида Алимурат кизи

State social policy in developing family entrepreneurship in agriculture

Khujakulova Nigora Rustamovna, Sharofova Saida Alimurat kizi

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Anotatsiya:** Mazkur maqola qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning olib borayotgan ijtimoiy siyosati, olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida olib borilayotgan ishlar tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasidagi oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi va uning ahamiyati, bu sohada yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** Qishloq xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik, davlat, ijtimoiy siyosat, aholi bandligi, ijtimoiy farovonlik, amaliy choralar.
- **Аннотация:** В статье анализируется социальная политика государства по развитию семейного предпринимательства в сельском хозяйстве, проводимые комплексные реформы, проводимая работа по всесторонней поддержке развития семейного предпринимательства, системная организация работы в этой сфере. Также были рассмотрены развитие и значение семейного предпринимательства в аграрном секторе Узбекистана, а также проблемы, возникающие в этой сфере, и пути их решения.
- **Ключевые слова:** Сельское хозяйство, семейное предпринимательство, государство, социальная политика, занятость, социальное обеспечение, практические меры.
- **Abstract:** This article analyzes the state's social policy in the development of family entrepreneurship in agriculture, the ongoing comprehensive reforms, the work being carried out to comprehensively support the development of family entrepreneurship and systematically organize work in this area. It also examines the development and significance of family entrepreneurship in the agricultural sector of Uzbekistan, the problems that arise in this area and ways to solve them.
- **Keywords:** Agriculture, family entrepreneurship, state, social policy, employment, social welfare, practical measures.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida amalga oshirilayotgan institutsional o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish vazifalari belgilangan [1].

Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4231-son qarori [2] qabul qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son Farmoni, 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila — tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-son va 2018-yil 14-iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son qarorlari asosida imtiyozli kreditlar berish tizimi yaratildi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, qulay shart-sharoit yaratish, qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'RQ-328-son Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, takomillashtirilib kelinmoqda. Bu esa, o'z navbatida huquqiy-me'yoriy hujjatlarni soddalashtirish natijasida qishloq hududlarda mulkdorlar sinfi kengaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan xorijlik, MDH va mahalliy olimlarning bir qancha ilmiy asarlari mavjuddir. Jumladan, S.E.Kholit, Babayeva Billard M., Суковатая В.А., Барсуковая С.Ю., Long B.C., Yaxshiyeva M.T., M.Shamsiyeva, Ahmedova D.larning ilmiy tadqiqot ishlari aynan tadbirkorlik va ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning o'rniga bag'ishlangan.

O'zbekistonda ham oilaviy biznes bo'yicha atroflicha

tadqiqotlar o'tkazilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun ixtiyoriy asosda, ishtirokchilarning ulushli yoki umumiy mol-mulk, shuningdek, ishtirokchilardan har birining molmulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi" [4].

Shuningdek, o'zbek olimlaridan A.O'lmasov va N.To'xliyevlarning tadbirkorlikni "daromad keltiradigan yoki naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasb-kor, mashg'ulot) sohibkorlik - tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish", "...tadbirkorlik-pul topish maqsadida mas'uliyatni zimmaga olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish" [5], deb ta'riflashgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning olib borayotgan ijtimoiy siyosati, amalga oshirilayotgan ishlar va chora-tadbirlar o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida har xil qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi, xizmatlarni bajaradilar. Ular dastavval natural shaklida hisobga olinadi, keyin ular sotiladi va bir qismi ichki iste'mol uchun ishlatiladi. Bunda mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlar bajarish jarayonining samaradorligi tovar-pul munosabatlari yordamida aniqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad – ko'proq sof foydaga erishishdir. Har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda avvalo resurslar sarflanadi, ya'ni xarajatlarni amalga oshiriladi. Ko'proq sof foydaga erishish uchun esa ushbu xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish, sarflanayotgan xarajatlarning har bir birligini imkon qadar ko'proq foyda keltiradigan holda amalga oshirish talab etiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, mahsulot tannarxini pasaytirish kabi chora-tadbirlar iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida,

xodimlarni moddiy rag'batlantirish, mahalliy va davlat budjetiga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish va nihoyat, korxona ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shaklida rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Natijada ishlab chiqarishga yangi texnikalar, samarali texnologiyalarni joriy etish ta'minlanadi. Bu hol mehnatning mexanizatsiyalashganlik darajasini yuksaltirib, unumdorligi oshirishini ta'minlaydi.

Demak, iqtisodiy samaradorlikning o'sishi korxonalarning ham, davlatning ham iqtisodiyoti yuksalishi negizidir. Shuning uchun bu masalaga respublikamizda alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ularga kredit olishda, soliqlar to'lashda imtiyozlar yaratilmoqda, chet el investitsiyalarini jalb etishda yordam ko'rsatilmoqda. Bularning barchasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlashga qaratilgandir. Buning uchun korxonalar o'z faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazishlari zarur.

Oilaviy tadbirkorlik – oila a'zolari va ularning yaqin qarindoshlari tomonidan tashkil etiladigan tadbirkorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi [6].

Oilaviy tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etmagan va yuridik shaxs tashkil etgan holda yo'lga qo'yish mumkin. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik oilaviy tadbirkor (OT), yuridik shaxs tashkil etgan holdagi oilaviy tadbirkorlik oilaviy korxona (OK) deb nomlanadi Oilaviy korxona faoliyatning ayrim turlarini faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lganda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishni va yer qaridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek, yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq yoki yagona yer solig'i to'lash nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirishi mumkin emas. Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va oldi-sotdi qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir [7].

Yangi O'zbekistonni barpo etishda aholining tadbirkorlik

tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-39-son qarori [3] qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ushbu tizimni samarali faoliyat olib borishi uchun 2023 yildan boshlab quyidagi mexanizmlar joriy etildi.

- kreditlar ustuvor ravishda dasturlar bo'yicha avval kreditlardan foydalanmagan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi;
 - agrar tarmoqda o'z biznesini tashkil etishga ko'maklashish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish maqsadida uzoq muddatga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini ijaraga olib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan dehqon xo'jaliklari va kichik tadbirkorlik subyektlariga 50 mln so'mgacha garovsiz kredit beriladi;
 - tadbirkorlik subyektlarining mahallalarda, shu jumladan tashkil etilgan mikromarkazlarda ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatish sohasini va hunarmandchilikni hamda aholi bilan kooperatsiya va kasanachilikni kengaytirishga yo'naltirilgan loyihalari uchun hokim yordamchilarining tavsiyanomasi asosida ajratiladigan kreditlar miqdori amaldagi 225 million so'mdan 300 million so'mgacha oshiriladi. Bunda, tashabbuskor loyihada kamida o'ttiz foiz ulush bilan ishtirok etishi lozim;
 - dasturlar doirasida ilgari olgan kreditlaridan samarali foydalanib, tadbirkorligini yo'lga qo'ygan va kredit to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirgan kichik tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini yanada kengaytirishi uchun mazkur kreditlardan takroran foydalanishga ruxsat etiladi;
 - imtiyozli kreditlardan foydalanib, daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanayotgan fuqarolar qonunchilikda belgilangan yo'nalishlar bo'yicha o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida tasniflanadi;
 - hokim yordamchisining tavsiyasiga ko'ra kredit summasining 10 million so'mgacha bo'lgan qismi (hunarmandlar uchun 20 million so'mgacha) bank kartalariga o'tkazib beriladi;
 - ajratilgan kreditlarni o'z muddatida qaytarmagan fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga dasturlar doirasida yangi kreditlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- Albatta ushbu yaratilgan tizim o'zining ijobiy natijasini berib, kichik biznes, xususi tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga

zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish, mam-lakatimizning eksport qiluvchi himoya qilishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish kambag'allikni qisqartirish, o'zini-o'zi ish bilan bandligini ta'minlash, mahallalarda xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirish kabilarga erishishni ta'minlaydi. Mahaliy Institutlarning samaradorligi rolini oshirish – tadbirkorlarga yangi korxona yaratish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etishi, shuningdek, uning keyingi faoliyati va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga inkoniyat berilishi lozim.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb xisoblaymiz.

1. qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun dastavval tadbirkorlik subyektlarini aniq moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan aholi mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'armalar, tadbirkorlar, tijorat banklari va moliya institutlarining kreditlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning grantlari, xalqaro standartlarga muvofiq kredit uyushmalari faoliyatini yo'lga qo'yish.
2. qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlar o'z ehtiyojlari uchun ob'ektlar quradigan yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlariga yagona soliq to'lovi to'lash bo'yicha imtiyozlar yaratish.
3. qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlik subyektlari bilan yirik korxonalar o'rtasida ilmiy-texnika sohasida kooperasiyasini yo'lga qo'yish. Yirik korxonalarning buxgalteriya, marketing kabi xizmatlarini outsorsing asosida tashkil etish mexanizmlari bo'yicha huquqiy asoslarni mustahkamlash.
- 4 qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlarning davlat xaridlarida ishtirokini oshirish, tadbirkorlik sub'yektlarining davlat xaridlari sohasida yanada soddalashtirish deb hisoblaymiz.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Xamrayeva Sayyora Nasimovna Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.d., professor / Хамраева Сайёра Насимовна Заведующий кафедрой «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета, доктор философских наук, профессор / Khamraeva Sayyora Nasimovna Head of the Department of Innovative Economics, Doctor of Philosophy,**

Professor Karshi State Technical University

- xamrayevasayyora@gmail.com
- <https://orcid.org/0000-0001-6516-5226>

1. **Xujakulova Nigora Rustamovna – Qarshi davlat texnika universiteti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasini dotsenti, / Хужакулова Нигора Рустамовна – доцент кафедры инновационной экономики Каршинского государственного технического университета / Khujakulova Nigora Rustamovna – Associate Professor of the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University**

- nigorakhujakulova86@gmail.com
- <https://orcid.org/0009-0001-2936-1972>

2. **Sharofova Saida Alimurod qizi – Qarshi davlat texnika universiteti 1-bosqich magistranti / Шарофова Саида Алимурат кизи – студентка 1 курса магистратуры Каршинского государственного технического университета / Sharofova Saida Alimurat kizi – 1st year master's student, Karshi State Technical University**

- Sharofova.saida@gmail.com
- <https://orcid.org/0009-0008-3680-5456>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4231-son qarori www.lex.uz
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-39-son qarori.
- [4]. M.Qazoqova, N.Eshmurodova. Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari. // "Zamonaviy fanda model va usullar" Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya, 11.23.2022.
- [5]. To'xliyev N., O'lmasov A. Ishbilarmonlar lug'ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1993. - 314 b.

- [6]. Jay Conrad Levinson, Paul R. J. Hanley. The Guerrilla Marketing Revolution: Precision Persuasion of the Unconscious Mind. — Piatkus Books, 2005. — 192 p. — ISBN 978-0749926113.
- [7]. Kholmammatov Diyor Haqberdievich. Promote Upgrade After-Sales Service Strategic Skills. Indonesian Journal of Law and Economics Review, 2019
- [8]. Kholmammatov Diyor Haqberdievich. Development of Customer Service Delivery System in Wholesale Trade. Indonesian Journal of Law and Economics Review, 2019
7. Duckworth-Chambless T., Quinones A., Mathiassen L. A Model to Manage Succession in Family Business // Available at SSRN 4322700. – 2023.
- [9]. Khasanova G. D., Kh Y. Y. Government support for the formation of innovative strategy //European research. – 2020. – №. 5. – С. 63.
- [10]. Navotova D.I. Possibilities of applying world experience in efficient use of irrigated lands of the republic of Uzbekistan//International conference on scientific research in natural and social sciences. Canada conference. Volume 2. Issue 2. February 5th 2023. P. 182-186.
- [11]. www.stat.uz
- [12]. <https://www.stat.uz/>.

Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik

Малый бизнес
и частное
предпринимательство

Small business and
private entrepreneurship